

AMIR MUZAFFAR: TARIX VA TAHLIL

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasining sakkizinchi vakili amir Muzaffarning shaxsiyati, hukmronligi davrida amirlikning siyosiy-ijtimoiy axvoli haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, mang'itlar, amir Nasrullo, amir Muzaffar, Ahmad Donish, Rossiya imperiyasi, Cho'ponota, Zirabiloq, Turkiston general-gubernatorligi, protektorat.

Аннотация: В статье представлена информация о личности Эмира Музаффара, восьмого представителя династии Мангидов, правившей Бухарским эмиратом, а также о политическом и социальном положении эмирата в период его правления.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Мангиды, Эмир Насрулло, Эмир Музаффар, Ахмад Дониш, Российская империя, Чопонота, Зирабилика, генерал-губернатор Туркестана, протекторат.

Abstract: This article provides information about the personality of Emir Muzaffar, the eighth representative of the Mangid dynasty that ruled the Bukhara Emirate, and the political and social situation of the emirate during his reign.

Keywords: Bukhara Emirate, Mangids, Emir Nasrullo, Emir Muzaffar, Ahmad Donish, Russian Empire, Choponota, Zirabiliq, Governor-General of Turkestan, protectorate.

“Butun dunyoga nur osmondan tushadi, faqat Buxoroda u yerdan ko'tariladi”, deyiladi Buxoroga oid maqolalardan birida. Buxoroliklarning bu so'zni aytishiga sabab, bu muqaddas shaharning zaminida minglab solih zotlar va musulmon avliyolar dafn etilganidir. Asrlar davomida sharaflı Buxoro Markaziy Osiyodagi Islomning asosiy markazlaridan biri, musulmon ilmi-ilohiyatining beshigi bo'lib kelgan. Bu muqaddas hududga hukmdorlik qilgan so'nggi sulola vakillari o'zbek Mang'itlari hisoblanadi.

Buxoro amirligi tarixi, hukmdorlari olib borgan siyosati sobiq sovetlar davrida tanqid qilingan, salbiy fikrlar bildirilgan. Mustaqillik sharofati bilan davlatchiligimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etgan amirlik tarixi, unda hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasi tarixini xolisona o'rganish boshlandi. Bu sulola hukmdorlarning olib borgan

ichki va tashqi siyosati, islohotlari, aholining turmush tarzi, madaniy hayoti va boshqalar tadqiq etish boshlandi [3].

Mang'itlar sulolasining yirik vakillaridan biri – Amir Muzaffar hisoblanib, u sakkizinchi Buxoro amiri hisoblanadi. Uning hukronlik yillari 1860 – 1885-yillarni o'z ichiga qamrab oladi.

Amir Muzaffar to'liq ismi Sayid Muzaffaruddin Bahodurxon bo'lib, 1827-yilda Buxoro amirligida tavallud topgan. Buxorolik tarixchi va ma'rifatchi Ahmad Donishning yozishicha, amir Nasrullo o'zining yolg'iz o'g'li Muzaffarni voris sifatida ko'rishni istamagan. Biroq siyosiy elitaning nufuzli qismi Muzaffarni qo'llab-quvvatlagan. Muzaffar 1860-yil oktyabr oyida otasining vafotidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan. Muzaffar Samarqandda yangi qurilgan Ko'ksaroy saroyida Temuriylar taxti Ko'ktosh taxtiga o'tirgan so'nggi Buxoro amiri hisoblanadi [4].

Amir Muzaffar hukmronlik yillari Mang'itlar sulolasi va ular hukmi ostida yashagan aholi uchun eng tahlikali davr bo'lgan, desak adashmaymiz. Faoliyatini otasi zamonida mansabda bo'lgan amaldorlarni bo'shatish va mol-mulkklarini musodara qilishdan, amir Nasrullo tomonidan o'z vaqtida Karmanaga surgun qilingan kishilarni yana poytaxtga qaytarib yuqori lavozimlarga tayinlashdan boshlagan amir Muzaffar shu tariqa o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qilgan bo'lsa-da, aslida davlat va sulola qudratiga katta zarba bergandi. Karmanadan qaytarib yuqori davlat lavozimlariga tayinlanganlar, Ahmad Donish so'zi bilan aytganda, o'z faoliyatlari davomida “xalqning qonini so'rganlar” edi. Ayniqsa, bu hol soliq yig'ishda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ahmad Donishning ma'lumotlariga qaraganda, amir Muzaffar Hisor va Qo'qonga qilgan harbiy yurishlaridan (1863 –1865) mag'rurlanib ketgan. O'zidan boshqani tan olmay qo'ygan. Shariat hukmlarini ijro etishda o'zboshimchalik yo'liga o'tgan. Masalan, arzimagan jinoyat qilgan kishi qatl etilishi, odam o'ldirgan jinoyatchini birov so'rab-surishtirmasligi ham mumkin bo'lib qolgandi. Shuningdek, uning davrida lashkar ham zaiflashgan, otasi zamonida harbiy yurishlarda pishgan sarkardalarni qatl ettirib, ularning o'rniga “tagi past kishilar va g'ulomlar” ni tayinlagan. Rossiya o'lkaga bostirib kirganda tagi past, nodon va g'ayratsiz sarkardalar qochib ketdilar, ulardan ozor chekib kelgan askarlar g'ulomlarga xizmat qilishni o'zlariga or deb bilib, tarqab ketdilar. Natijada, bir qator viloyatlar Rossiya qo'liga o'tadi. 1868-yili Rossiya harbiy bosqiniga dosh berolmay mang'itlar boshqarga Buxoro amirligi qaramlikni bo'yniga olishga majbur bo'ladi [1. – B. 285.].

Amir Muzaffar hukmronligining chorak asrida Buxoro taxtida bir qator voqealar bo'lib o'tdi. Uning shaxsiyatiga doir qarashlar zamondoshlari tomonidan juda ham turlicha, hatto qarama-qarshi tarzda berilgan. Masalan, tarixchi Mirzo Abdul Azim as-Somiy Muzaffarni “Fazilatli ishlarni amalga oshirgan va yaxshi xulq ko'rsatgan” deb baholasa, Ahmad Donish uni “Tug'ma nodon va tor fikrli”, “aqlsiz va qonxo'r”,

“buzuq va zolim” deb atagan. Boshqa bir muallif esa amir “Tinch, yakkalanishga moyil va dindor” bo’lganini yozadi.

Amir Muzaffar bilan 1883-yilda uchrashgan rus zobiti V.Krestovskiy o’z esdaliklarida amirning tashqi ko’rinishini shunday tasvirlaydi: “Amirning chexrasida ilgari bo’lgan go’zallikdan hali ham izlar bor edi... Uning qora mo’ylavi va qisqa soqoli, nozik qoshlari, kipriklari ostidan mo’ralab turgan katta qora ko’zlari bor edi. U odatda ko’zlarini biroz qisib turardi, faqat vaqti-vaqti bilan qarshisidagiga tik qarab, ularni to’liq ochardi. Umuman olganda, chehrasi do’stona taassurot uyg’otardi. Soqoli forsha uslubda ozgina bo’yalgan bo’lib, yorug’da qizg’ish yoki binafsha rangda jilovlanardi”.

Amirning Toshkentda yashagan jiyani Mir Sayyid Ahadning aytishicha, Amir Muzaffar “Ayollar go’zalligiga juda qiziqqan” bo’lgan. To’rt nafar rasmiy ayolidan tashqari, u 150-200 nafar ayoldan iborat keng haramga ega edi. Uning bosh xotini Shahrizabz beki Doniyor otaliqning qizi bo’lib, undan farzand ko’rmagan [3].

Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asr o’rtalarida Qo‘qon xonligidan boshlangan mustamlakachilik harakati Buxoro amirligi hisobidan davom ettirilgan. Amirlikning harbiy kuchi Qo‘qon xonligi bilan uzluksiz olib borilgan urushlar tufayli zaiflashgan va Rossiya imperiyasi uchun qulay vaziyat yuzaga kelgan edi. 1866-yil yanvar oyining oxirida Chernyaev Jizzaxga yurish boshlaydi. Ammo 8-9 ming kishilik shahar himoyachilarining ko’rsatgan qarshiligi tufayli u orqaga chekinishga majbur bo’ladi. 1866-yil mart oyida Chernyaev Peterburgga chaqirib olinadi, uning o’rniga general Romanovskiy yuboriladi. Toshkentga yordam uchun yuborilgan Buxoro amirining 100 ming kishilik qo’shini bilan general Romanovskiy qo‘mondonligidagi chor Rossiyasi qo‘shinlari o‘rtasida 8-mayda Erjarda bo‘lgan jangda rus qo‘shinlari g‘alaba qozonadi. 24-mayda rus askarlari Xo‘jandda ham g‘alabaga erishadilar. Avgust oyida Romanovskiy Toshkent, Xo‘jand va Chirchiqorti hududlarini Rossiyaga qo‘shib olish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi. Buxoro amiri bilan muzokaralarda kelisha olmagan, Romanovskiy 2-oktyabrda Buxoro amirligiga qarashli O‘ratepa qal‘asini, 18-oktyabrda esa Jizzaxni bosib oladi. Qizig‘i shundaki, Buxoro amiri rus qo‘shinlariga qarshi birgalikda jang qilishni Qo‘qon xoni Xudoyorxonga taklif qilganda, u turli bahonalar bilan bu ishga bosh qo‘shmaydi. 1867-yilda Rossiya imperiyasi bosib olgan joylarda Turkiston general-gubernatorligi tuziladi. 1867-yil 7-iyunda rus askarlari Jizzax va Samarqand o‘rtasida joylashgan Yangiqo‘rg‘onda 25 ming kishilik Buxoro qo‘shini va xalq ko‘ngillilarini tor-mor keltiradi. 1868-yil 1-mayda Samarqand ostonasidagi Cho‘ponota tepaligida shiddatli va beayov jang bo‘ladi. 2-mayda Samarqand shahri taslim bo‘ladi. Buxoro amiri Muzaffarxon bu xabarni eshitgach, shu darajada daxshatga tushadiki, jahl ustida bu “shum xabar”ni keltirgan xabarchini osib o‘ldirishga farmon beradi. Samarqandning bosib olinishi bu juda katta yo‘qotish edi. Amir Muzaffarning xalq o‘rtasida obro‘si tushib ketadi. Xalq

g'azabga keladi. Ayniqsa amirning chor hukumati bilan sulh tuzishga moyilligi vaziyatni keskinlashtirib yuboradi. Xalq amirdan urushni davom ettirishni so'rab qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olon markazi Cho'li Malik edi. Amir Muzaffar qo'zg'olonning butun Zarafshon vodiysiga tarqalib ketishidan qo'rqib, uni tezda bostiradi-da, beklar bilan kengash o'tkazadi. Unda urushni davom ettirish yoki sulh masalasi ko'riladi va urushni davom ettirishga qaror qabul qilinadi. Amir Muzaffar barcha kuchlarni jamlab, Samarqandni qaytarib olishga kirishadi. 15 ming otliq, 6 ming piyoda va 14 ta to'pli Buxoro qo'shini Zirabuloq tepaligiga kelib o'rnashadi. Amir Muzaffar qo'shinni ruhlantirish va g'alabaga chorlash niyatida ularga quyidagicha murojaat qiladi: "Sodiq musulmon fuqarolari! Sizlarning zahmatlaringiz uchun rahmat, sizlarni ishontiramizki, g'alaba biz tomonda bo'lgay. Samarqand va Kattaqo'rg'onning qo'ldan ketishi biz uchun unchalik katta yo'qotish emas. Biz temuriylar avlodimiz, o'z erimizni qanday qaytarib olishimizni ko'rsatib qo'yamiz. Musulmonlar! Men dinimiz va vatanimiz uchun musulmon ahlining qahramonona jang qilishini kofirlar ko'z o'ngida namoyon etishingizga umid qilaman. Xalq bizdan g'alaba kutyapti, u jangdan so'ng sizlarni qarshi olganida din va vatan himoyasi uchun kurashgan va erimizni kofirlardan tozalaganlar, deb aytsin. Zirabuloq jang maydonida halok bo'lganlar sharafiga shonli yodgorlik o'rnatiladi. Ishonchim komilki, sizlar mening umidlarimni ro'yobga chiqarib, samarqandliklar to'nidagi qora dog'ni yuvasizlar. Musulmonlar, sizlarga zafar yor bo'lsin!".

1868-yil 2-iyunda general K.P.Kaufman qo'mondonligidagi qo'shin va himoyachilar o'rtasida jang boshlandi. Buxorolik mudofaachilar ko'p talofot ko'rib mag'lubiyatga uchraydilar. Bu xabar xalq g'azabini battar kuchaytiradi. Amir qo'rqib Qizilqum tarafga qochib ketadi. Samarqandda chorizmga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlanadi. Yurt himoyasiga shahar atrofidagi qishloq va ovullardan minglab kishilar kelib qo'shiladi. Naymanlar, qoraqalpoqlar, xitoy-qipchoqlar, qirq juzlar va boshqa qabilalar Jo'rabek va Bobobek boshchiligidagi Shahrisabzdan kelayotgan 20 ming kishilik qo'shin qasoskorlarga qo'shib, Samarqanddagi qo'zg'olonchilar safini to'ldiradi. Samarqand chorizmga qarshi umumxalq kurashining o'chog'iga aylanadi. K.P.Kaufman Zirabuloq yaqinida Buxoro amirligi qo'shinlarini tor-mor keltirib, tezlik bilan Samarqandga qaytadi. 8-iyunda u Samarqandni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga va shaharni batamom yoqib yuborishga buyruq beradi. 9-iyunda Samarqandda qirg'in boshlanadi va u uch kun davom etadi. Yuzlab odamlar hech qanday so'roqsiz, tergovsiz otib tashlanadi. Samarqanddagi qo'zg'olon yakunlariga ko'ra uning boshliqlaridan 19 kishi o'limga, va yana shuncha kishi Sibirga umrbod surgunga hukm qilinadi. Amir Muzaffar esa sulhdan boshqa chora topa olmaydi. 1868-yil 23-iyunda amir Muzaffarning elchilari Samarqandga K.P.Kaufman huzuriga kelib, sulh tuzishga rozilik bildiradi. Sulhga ko'ra Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi xonlikdan ajratib olinib, Rossiya tarkibiga kiritiladi. Amir tovon sifatida

500 ming so'm tilla pul to'lashga va xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda aloqa o'rnatmaslikka rozilik beradi. Shuningdek, Rossiya savdogarlariga xonlik tasarrufida bemalol savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishga hamda karvonsaroylar qurishga ijozat etiladi. Ular to'laydigan boj miqdori buxoroliklar to'laydigandan oshmasligi kerak edi. Xullas, shartnoma tuzilgandan so'ng Buxoro amiri urushni rasman to'xtatib, rus davlatiga tobeligini tan oladi. Bu esa vatanparvar, hurfikrli odamlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ladi. Hatto amirning o'g'li Abdumalik Katta to'ra va bir necha nufuzli beklar birlashib, amir Muzaffar va chorizm istilochilariga qarshi kurashni davom ettiradi. Ular amirning taxtdan mahrum etilganini e'lon qilib, Shahrisabz va Kitobda katta kuch to'playdi. Kitob va Shahrisabz beklari Jo'rabek va Bobobek, Katta to'rani xon deb e'lon qiladilar. Natijada, amir Muzaffarning ahvoli nihoyatda og'irlashadi. Ota-bola qo'shinlari o'rtasida Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida sodir bo'lgan jangda amir sarbozlari yengiladi.

1868-yilning kuzida Buxoro amiri Muzaffar o'ziga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish uchun general-gubernator nomiga maktub yo'llaydi. Kaufman bu maktubdan shuni anglaydiki, amirning o'g'li Abdumalik otasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Qarshi atrofida katta kuch to'plagan. Kitob begi Jo'rabek, Shahrisabz hokimi Bobobek va Sulton Sodiq Kenisarov otryadlari shahzoda armiyasi tayanchlari ekan. O'shanda Samarqand okrugi boshlig'i, general-mayor Abramov bu uch otryad boshliqlaridan eng xavflisi Sodiq Kenisarov ekanini aytgan. Sulton Sodiq Kenisarov 1868-yilda Buxoro amiri qo'shini safida Kaufmanga qarshi kurashadi. Zirabuloqdagi jangda amir qo'shinlari bilan qochganida, Sulton Sodiq o'z yigitlari bilan jang maydonida qoladi. Keyin u Kaufman bilan sulh tuzgan amirga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga qo'shilib, Kitob begi Jo'rabek va Shahrisabz begi Bobobek sarbozlari safidan joy oladi. Kaufman bunday xavfli dushmanlarga qarshi tajribali general Abramovni yuboradi. Qo'zg'olonchilar Qarshi ostonasida rus qo'shinidan engilib, turli tomonlarga tarqab ketadi. Jo'rabek va Bobobek Shahrisabz va Kitobga qochadi. 1870-yil 14-avgustda Kitob shahri shiddat bilan qo'lga olingach, Jo'rabek va Bobobek Qashqar tomon yo'l oladi. Ular Mahram ostonalarida Qo'qon sarbozlari tomonidan hibsga olinadi va Xudoyorxon amri bilan Kaufmanga topshiriladi. General Kaufman esa ularni o'z xizmatiga olib rus qo'shini zobitlari unvonini beradi. Sulton Sodiq esa Qizilqum orqali Xiva xonligi hududiga o'tib ketadi. Buxoro amiri Kaufman bilan tuzilgan sulh shartnomasiga ko'ra, Samarqand hamda Kattaqo'rg'ondan ajrabgina qolmay, o'zining siyosiy mustaqilligidan ham mahrum bo'ladi. Buxoro amiri rus saltanatining vassaliga aylanib, mamlaka Rossiya saltanati qaramligidagi yurtga-yarim mustamlaka ahvoliga tushib qoladi. Chor Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi 1866 – 1868-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan qattiq janglardan so'ng Buxoro mag'lubiyatga uchrab, o'z hududining katta qismidan mahrum bo'ldi. Jizzaxdan tortib Kattaqo'rg'onga qadar bo'lgan hududlar Rus hukumati tobeligiga o'tdi. Rossiya –

Buxoro o'rtasidagi janglarda zabt etilgan hududlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyati tashkil etildi [1].

Shunday qilib, Buxoro amirligi 1868-yilga kelib Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on kabi o'zining yirik aholi manzilgohlaridan va Zarafshon vohasining yuqori hamda o'rta oqimidagi hududlardan to'la mahrum bo'ldi. Buxoro hukmdori amir Muzaffar o'z hududining katta qismidan ajralib qolishi bilan bir qatorda, Rossiya imperiyasiga o'ta katta miqdorda tovon to'lashga ham majbur bo'ldi. Mana shu holatda, Buxoro amirligi XIX asrning 70-yillaridan to 1920-yilga qadar rasman o'z davlatchiligini saqlab qolgan holda tarix sahnasida faoliyat ko'rsatib turdi [2. – B. 189-192].

Amir Muzaffar 1868-yil iyulidan to 1885-yil vafotigacha Rossiya imperiyasi bilan tinch-totuv munosabatlarni saqlab turdi. 1885-yilda vafot etib, Buxorodagi Ishan Imlo qabristoniga, ota-bobolari qabri yoniga dafn etilgan. Keyinchalik Ishan Imlo qabristoni Sovet davrida vayron qilingan[4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, amir Muzaffar Mang'itlar sulolasidan chiqqan Buxoro amiri edi. U Buxoro amirligining mustaqilligi oxiriga yetgan muhim tarixiy burilish davrida hukmronlik qilgan. Uning hukmronlik davri Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda toboro kuchayib borayotgan ta'siri va Buxoro amirligining mustaqilligini yo'qotishi bilan tavsiflanadi. Amir Muzaffar o'z hukmronligini mustahkamlashga intilib, islohotlar ham o'tkazgan. Lekin shunga qaramay uning davrida amirlikda iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy zo'ravonliklar davom etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.
2. To'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2020.
3. Sultonova Kumushxon. Amir Muzaffar faoliyati. // NEW RENEISSANCE international scientific journal. ResearchBib IF-11.01, ISSN: 3030 - 3753, Volume 2, Issue 6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15714975>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Muzaffar